


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
NALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA UZARNING  
MALAKASINI OSHIRISH XUDUDIY MARKAZI

**TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHDA INNOVATSION  
YONDOSHUV**

*Respublika-ilmiy-amaliy on-line konferensiyasi materiallari*

2018-yil 10-may



GULISTON -2018

Ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda innovatsion yondoshuv. Respublika ilmiy-amaliy On-line konferensiya materiallari. – Guliston, GuDU huzuridagi XTXQTMOMH, 984- bet.

Ushbu to'plamda Guliston davlat universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi tomonidan tashkil etilgan "Ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda innovatsion yondoshuv" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy On-line konferensiyaniga kelib turishgan tezis va maqolalari o'rinn olgan.

Mazkur ilmiy-amaliy On-line konferensiyaning maqsadi – innovatsion ta'lim tizimida barcha fanlarni mazmumnan modernizatsiyalash, o'qitish sifat-samaradorligiga erishish texnologiyalari, ularning samaradorligini oshirishda davlat me'yoriy hujjatlarning o'rnii, filologik fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy hamda differential yondashuvning ahamiyati, o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarni obyektiv baholashning mazmuni-mohiyati, fanlarni o'qitish sifat-samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kabi masalalarni yoritish ko'nda tutilgan.

Ilmiy amaliy On-line konferensiya materiallaridan umumta'lim mabkab o'qituvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va barcha pedagoglar foydalanshlari mumkin.

<i>Mas'ul muharrir:</i>	<i>biologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>	<i>Sh.Turdimetov</i>
<i>Tahrir hay'ati:</i>	<i>pedagogika fanlari doktori, professor</i>	<i>Q. Yo'ldoshev</i>
	<i>pedagogika fanlari doktori, professor</i>	<i>B. Raximov</i>
	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>	<i>U. O'liboev</i>
	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>	<i>O. Fayzullaeva</i>
	<i>tarix fanlari nomzodi</i>	<i>U. Qlichev</i>
	<i>katta o'qituvchisi</i>	<i>A. Uralov</i>
	<i>katta o'qituvchisi</i>	<i>O. Ochilova</i>
	<i>katta o'qituvchisi</i>	<i>M. Axmedova</i>
	<i>katta o'qituvchisi</i>	<i>M. Musurmankulova</i>

Taqribchilar: A. Uralov GuDU huzuridagi XTXQTMOMH "Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasi mudiri,

katta o'qituvchi

R.Shernazarova GuDU huzuridagi XTXQTMOMH "Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasi

katta o'qituvchisi

Guliston davlat universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2018-yil 9-mayda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishining 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-45-75

To'plamdan o'rinn olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy daillarning haqqoniyigligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir.

© GuDU huzuridagi XTXQTMOMH, 2018

<i>Мусурманкулова Мұхәбәт</i>	Инглиз тилиниң үрганишда синфдан ташкари ишларының замонавий усуллари	304
<b>2-SHO'BA – IJTIMOIY FANLARNI O'QITISHDA ILG'OR TAJRIBALARING O'RNI</b>		
<i>O.Suvonov</i>	Talabalarni o'qituvchilik kasbiga tayyorlashda muammoli vaziyatlar yaratishning o'mi	306
<i>Я. Нұрумбекова</i>	Таълим-тарбия жараёнинг инновацион ёндашувлар таҳлили	307
<i>Nuralieva Nargiza</i>	O'qituvchilarining kasbiy kompetentligini Rivojlanish yo'llari	308
<i>Y.Nurumbekova D. Mavlonova</i>	Hakimlik ta'limi texnologiyasining didaktik imkoniyatlari	310
<i>Юсупова Севара</i>	Узбекистонда тарбияни демографик жараёнлар	311
<i>Ш. Юлдашев, К. Қодирова</i>	Барқамол шаҳсни шакллантиришида илмий дунёкарашининг туттган ўрни	313
<i>Юлдашев Ш.Ш. Алибоеев Д.</i>	Педагогларнинг инновацион фоалият самарадорлигини ошириш йўллари	314
<i>Saidbek Holdarov, Hayitxon Ismoilova</i>	Zardushniylik ta'limotida axloqiy-estetik qarashlar	316
<i>M.M.Xolboeva, U.Ergashev</i>	Xalq ta'limi tizimida pedagog modimlar kasbiy kompetentligini yuksaltirishning o'ziga xos xususiyatlari	317
<i>У.Кичев, Р.Сувонов</i>	Tarix faniini ўқитишида ахборот коммуникация воситаларидан фойдаланиш	319
<i>Дилноза Тўраева</i>	Tarixiy образ яратишида бадиий-эстетик принциплар	321
<i>Сайдова Дилмира</i>	Tarix faniini ўқитиши методикаси: муаммо ва ечимлари	325
<i>Раҳматова Ҳўлкар</i>	Истиклол даври юнандай насрода Амир Темур образининг бадиий талқини	326
<i>Расмонова Шаҳзо</i>	Taъliom сифатини оширишида кўрик-танловларнинг аҳамияти	329
<i>Rahmatullayeva Sayyora</i>	Ijtimoiy fanlarni o'qitishda ilg'or tajribalarining o'mi	331
<i>Rahimova Muborak</i>	Ta'lim jarayonida axborot - texnologiyalarining ahamiyati	331
<i>Равшанбеков Азизбек</i>	Укувчилар онгига "оммавий маданият"ни олдини олиш ва унга карши мағкуравий иммунитетни шакллантириш омиллари	333
<i>O. Ширинов</i>	Barqamol avlod tarbijasiida oila, mazhalla va maktabning uzvilligini	334
<i>Mahfuz Shamsiyeva</i>	Ta'lim tizimi axborot-kutubxona muassasalarida interfaol usullardan foydalanimish o'ziga xosligi	336
<i>Машарипова Насиба Хўдайбердиев Сарояр</i>	Taъliomda инновацион ёндашув жараённан ўкувчиларда ўзларни англашга каратилган тарбиянинг аҳамияти	339
<i>Мансур Турдиалиев</i>	Aхборот ресурсларидан фойдаланиши маданиятини ўкувчи-ёшлар онгига шакллантириши	341
<i>M. Ma'tirova</i>	Mustaqil fikrashni shakllantirish metodlari	343
<i>M. Baixijanova</i>	Ta'lim samaradorligini oshirish usullari	344

Ob'ektiv ravishda paydo bo'ladigan muammoli vaziyatlar o'qituvchidan mahorat bilan q'llanishini talab etadi. «A.M.Matyushkin muammoli vaziyat yaratishning 6 ta qoidasini, muammoli vaziyatda o'zlashtirish jarayonini boshqarishning 4 ta qoidasini, muammoli vaziyatlarning izchilligini aniqlashning 5 ta qoidasini aniqladi va izohlab berdi»<sup>78</sup>.

Muammoli vaziyat yaratilish jarayoni bir necha bosqichli bo'lib, o'qituvchi o'rtaga tashlagan muammoli savollar o'quvchiga muammoli vazifalarini belgilab berishi, muammoli vazifalar o'z navbatida muammoli topshiriqni keltirib chiqarishi, muammoli topshiriq esa muammoli vaziyatga olib kiruvchi, aniq bilan noaniqning ziddiyatidan iborat bo'lib o'quvchi noaniqni topishdan oldin aniqni belgilab olishi, keyingina noaniqni topishga kirishishi lozim.

Muammoli vaziyat, qiziqish va emotsiyonallik – o'quvchining irodaviy zo'r berishi bilan birlashtirishning ratsional va hissiy tomonlarini aks ettiradi. Didaktik bilih aktivligiga savollar, masalalar, topshiriqlar, ko'rsatmalilik, nutq, ko'pincha ularni qo'shib olib borish orqali erishiladi. Muayyan sharoitlarda bu elementlar o'qituvchi qo'lida muammoli vaziyat hosil qilishda, o'quvchilarining qiziqishi va emonatsional kayfiyatini qo'zg'ashda, ularning irodasini harakatga safarbar qilishda quroqla aylanadi.

Muammoli vaziyatni tashkil etish butun ta'lim jarayonini boshqarish bilan bog'liq bo'lib, u o'quv materialining dastlabki tahsilini, mavzular orasidagi aloqadorlikni aniqlashni, ta'limga muammoli masalalarini olib kirish shartlarini aniqlash va ularni muvaffaqiyatli hal etishni, o'quvchilarining mavjud tajribalarini inobatga olishni, ularning uyda o'qishlari uchun kerakli qo'shimcha adabiyotlar ajratishni, muhim didaktik materiallarni tayyorlash kabi zaruratlarni nazarda tutadi.

Xulosa sifatida shuni e'tirof etish joizki, zamona viy pedagogik texnologiyalarning zarur shartlaridan biri, ta'lim jarayonida o'qituvchi, o'quvchilarining mustaqil bilim olishlarini ta'minlovchi, yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi, tafakkurini rivojlantirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatuvchi, hamkorlik qiluvchi shaxs sanaladi. Bunga muammoli ta'lim orqali erishish eng ma'qul yo'l hisoblanadi. Uammoli ta'lim mustaqil, ijodiy va faol o'zlashtirishni ta'minlash bilan birga, keng qamrovli fikr yuritishga, avvaliga o'zi uchun yangi bilimlarni kashf etishga va keyinchalik ilmni, fanni rivojlantradigan kashfriyotlar qilishga zamin hozirlaydi.

Bilim oluvchilar tomonidan muammoli vaziyatlarni hal etish jarayoni ijodiy izlanishga, tadqiqotchilik faoliyatini yuritishga, ilmiy izlanish va kashf qilish malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bu o'z navbatida bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayrgarligini mukammallashtiradi.

## ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР ТАҲЛИЛИ

Я. Нурумбекова

ГулДУ камта ўқитувчи

Ш. Каримов талаба

Янгиликни фарқлаш ва тарбиячини ижодий маҳсулти ўлароқ янгила ёндашувлар, ўзи томонидан яратилган, татбиқ этилган янгиликка нисбатан муаллифлик фаолиятини белgilайди. Тарбия ва таълим ишида мутахассис ўзига макбул йўлни танлайди. Мулоқот ва муносабатлар меъёрини таъмин этадиган сурат (тэмп), қўлланилаётган методларга кўра бир хил андозада кечмайди. Ўзининг ранг-баранглиги билан ажralib turadi. Ўкувчи ва талаба учун устоз-мураббий тарбия дарсини нимадан бошлаб ва тарбия oluvchini қандай килиб, мавзуу мақсадлари асосида йўналтира олиши xар доим инновацион ёндашувлар асосида амалга ошиди.

Бунга мисол тарикасида Гулистон давлат университети педагогик инновация маркази ходимлари томонидан ишлаб чиқилган "Шахсий фикр" ва "Занжир" методларини татбиқ этиш методикасини кўрсатиб ўтамиз.

Методлар модернизацияси ўлароқ ишлаб чиқилган ушбу интерфаол методлар таълим жараёнини такомиллаштиришда кенг камровда қўлланилди. Буни биз куйдагича ифода этдик

<sup>78</sup> М.Махмудов «Мактабда проблемали таълимни ташкил килиш». Т., Ўқитувчи-1981, 80-бет.

Талабалар томонидан янги билимларни ўзлаштиришда, олган билимларни мустаҳкамлашда, онгиди ҳосил бўлган маълумотларни қайта ишлаб таҳлил килиш, таққослаш ва тегишли хуносалар чикаришда шахсий фикр методи яхши натижа берди.

Тадқикот кузатувларига кўра, хозирги пайтда ўкувчи-талабалар кўпроқ билим ва янгиликларни мустакил ишларни бажариш жараёнида эгалланомодалар. Мустакил ўқиб ўрганган материалларни қайта ифодалашда, амалга титбиқ этишда ушбу метод ўкувчи ва талабаларнинг онгли ва фаол ўзлаштиришларини таъминлашга қаратилди.

Илмий-назарий ва амалий билим ҳамда кўникмаларни ҳосил килишда, айникса, муаммоли ўкув материалларини таҳлил килиш жараёнида ўкувчилар ва талабалар алоҳида кичик гурухларга ёки иккига бўлинган ҳолда ўз ёндашув ва муносабатларини баён этишиди. Бошқалар бу фикрни инкор этадиган ёки ўзларича “янги” деб караган нуктаи назарни илгари суринди, далил ва асосли исботлар келтирилди. Қарши фикр билдирганларни ўз томонларига ўтказишга ҳаракат килинди.

Юкорида таъкидланганидек, ушбу методни тарбия жараёнига татбиқ этиш алоҳида инновацион ёндашувни талаб этди. Буни биз кўйидаги тартибда белгиладик

#### Шахсий фикр методи (тарбия жараёни)

Баҳс-мунозарага олиб келадиган ва айни пайтда ушбу мавзулар юзасидан ҳар ким ўзининг шахсий фикрини айтиш имконига эга бўлгани учун “Шахсий фикр” методи асосида тарбия ва унинг ички мазмунини ёритадиган қарашлар ва ғоялар вужудга келиши аникланди.

Шахсий фикр методини тўлдирувчи “Баҳс-мунозара”, “Занжир” ва “Ровен доиравчалари” методлари бу ўринда усул вазифасини бажаради. Усул вазифасини бажарувчи методлар етакчилик килганда, бошқа методлар уни тўлдирувчи бўлиб хизмат килиши мумкин. Шунинг учун методни усул ўрнида ишлатиш мақсадга мувофиқ эмас. Чунки метод усулга қараганда анча кенг маънени камраб олади. Интерфаол методлар татбиқида “метод” ва “усул” тушунчаларини ўз ўрнида ишлатиш педагогик талабларга мос келади.

Ровен доиравчалари (диаграммаси) методи ўкувчи ва талабаларда танланган долзарб мавзуга нишбатан таҳлилий ёндашув, айрим қисмлари негизида мазмунни умумлашган, интегратив моҳияти синтезлашган кўникма ва малакаларни ҳосил килишга қаратилади. Тарбия ва таълимнинг бирлиги принципига мувофиқ бу метод асосида эгалланган билим, кўникма ва малакаларни шахснинг хулк-автори, характер хусусиятлари, эзгу ниятлари билан боғлаб, киёсий таҳлил этиш мумкин

Хуллас, тарбиячи касб фаолиятини технологиялаштириш омилларига мувофиқ унинг самарадорлигига қаратилган яхлит тизимни педагогик принциплар асосида ўсиб бориши, тажриба-синов ишлари ва уларнинг якунларида кўриб чиқилди. Кўриниб турибдики, ҳар бир босқич ўзига хос тарбия принциплари, конуниятлари, методларига эга бўлиб уларни амалга оширишда тарбияидан инновацион билим, кўникма ва малакалар талаб этади.

## O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANISH YO'LLARI

Nuralieva Nargiza  
Sirdaryo VXTXQTMOI katta o'qituvchisi

**Kompetensiya** iborasi zamonaviy adabiyotda keng qo'llaniladigan termin bo'lib, ta'lim, xodimlarni tanlash, mehnat natijasini baholash, ta'limmmng muvoffaqiyatligi, professional yo'naltirilganlik va shu kabi masalalarini qamrab oladi.

1970-yillarda ko'pgina Garb Yevropa davlatlarida paydo bo'lib, bunda kompetentlik professional tayyorlarligining yangi yo'nalishini ko'rsatadigan bo'ladi. «Kompetentlik» termini ta'limda fakatgina individual, texnik yoki tajribiy bilim va qobiliyatni egallash masalalari bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki o'qituvchi kasbini rivojlantirishga baza bulib, xizmat qila oladigan qobiliyat va ko'nikmalari majmuasini ifoda qiladi. Ammo bu g'oya barcha Yevropa davlatlarida turlicha uz ifodasini topdi.

- qaror qabul qila olish;
- konflikt va kelishmovchiliklarni bartaraf eta olish;
- kelishish;
- kontraktlarni tuzitish va bajarish;

**Ishga kirishish**

- loyihaga kirishish;
- javobgarlikni xis etish;
- gurux va kollektivgv qo'shilib, o'z xissasimi ko'shish;
- xamfikrlilikni bildirish;
- o'z ishini tashkillashtira olish;
- hisob-kitob asboblari bilan ishlay olish;

**Ko'nikish**

- Yangi informasion va kommunikasion texnologiyalarni qo'llay bilish;
- tez-tez sodir bo'layotgan o'zgarishlar oldida ixchamlikni isbotlash;
- kiyinchiliklar oldida uzining ko'ch - matonatini kursatish;
- yangi qarorlarni chiqarish;

Shunday qilib, o'qituuvchilarning kasbiy kompetentligi ta'limnmng barcha yo'nalishlarida, shaxsning tajribasi, uning aktiv pozisiyasi, faoliyatga tayyorgarlik darajasi, o'z ustida ishlashi, ta'limda samaradorlikni ta'minlash, o'qituuvchilarning mahoratini oshirish uchun ularda ma'suliyat hissini shakllantirish, innovatsion jarayonlarini tashkil etish va har qanday muommo mohiyatini bilish, uni hal qilish, tinimsiz yangilab borish eng yangi axborotlardan xabardor bo'lish kabi sifatlar bo'lishini taqozo etadi.

### **HAMKORLIK TA'LIMI TEXNOLOGIYASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

*Y.Nurumbekova GulDU katta o'qituvcisi*

*D. Mavlonova GulDU talabasi*

“Ta'lism to'g'risida” qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida “Malaka oshirish va qayta tayyorlash” alohida ta'lism turi sifatida qayd etilgan. O'qituvcining muntazam o'z ustida ishlashi, kasbiy-pedagogik saviyasini rivojlantirib borishi, uzuksiz malakasini oshirishi davlat tomonidan qo'yilgan ijtimoiy buyurtma hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-maydag'i “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirshga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi 1761-tonli qarori va shu qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-avgustdag'i “O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirshga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi 242-tonli qarori talablariga muvofiq reja asosida viloyatimizdagi kasb-hunar kolleji o'qituvcilar Guliston davlat universitetida “O'rta maxsus, kasb - hunar ta'limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash” fakultetida malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tugatib tegishli sertifikat olishga muvofiq bo'lishmoqda. Jumladan 2015-yilning birini sentyabr oyidan men ham to'rt oylik qayta tayyorlov kursida o'qishga muvofiq bo'ldim. Kurs davomida bir nechta modullar bo'yicha o'z bilimlarimizni, kasbiy mahoratimizni oshirishga muvofiq bo'ldik. Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar va, axborot kommunikatsion texnologiyalarini o'z mutaxassislik fanlariga tatbiq etishni o'rgandik. Bunda “Umumiyy pedagogika” moduli bo'yicha dotsent H. Abdurakov, “Kasb hunar pedagogikasi ” moduli bo'yicha dotsent M. Muhliboev, “Yosh davrlar psixologiyasi” modulidan psixologiya fanlari nomzodi M. Xolnazarova, “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lism jarayoniga tatbiqi”, “O'quv mashg'ulotlarini tahlil qilish metodikasi” moduli bo'yicha katta o'qituvcchi Yo. Nurumbekova mashg'ulotlarida kasb-xunar ta'limi tizimining mohiyatini yanada chuqurroq o'rganishga muvoiq bo'ldik. Jumladan hamkorlik ta'limi mohiyatini o'rganiib, samarali tashkil eish texnologiyasini o'rganishga muvofiq bo'ldik. Quyidagi fkirlarimizni sizlar bilan o'rtoqlashishni lozim topdik.

Hamkorlik ta'limi – o'quv jarayonida o'quvchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birligida o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, "pedagog-o'quvchi(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim bo'lib, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini jamoada, kichik guruhlarda yoki juftlikda birligida, o'zaro hamkorlikda bajarish sanaladi

Hamkorlik ta'limi yo'naliishlari: ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish; o'quvchilarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish; ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish.

Hamkorlik ta'limi texnologiyalari – o'quv jarayonida o'quvchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birligida o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, shuningdek, "pedagog-o'quvchi(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlovchi ta'limiy xarakterdagi texnologiyalar.

HTTning g'oyalari o'tgan asrning 80-yillarida J.J.Russo, K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko va boshqa novator-pedagoglarning qarashlari asosida shakllangan. HTT o'quvchilarda intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy qobiliyat, qiziqish, motivlarni rivojlantirish asosida dunyoqarashni hosil qilish maqsadini ilgari suradi.

HTTning tarkibiy elementlari: 1. Tayanch konsept (fizik, matematik va kimyoviy formulalar, tezislар, izohlovchi suratlar, qisqacha xulosalar, ramziy belgilari, sxemalar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar)dan foydalanish.

2. Bilimlarni test asosida sinovdan o'tkazish.

3. O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholash.

o'zlashtirish va ularni qayta ishlab chiqishni inkor qilish; o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish; pedagogga va tengdoshlarga nisbatan ijobjiy munosabatning yuzaga kelishini ta'minlash; o'quvchilarda madaniy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish; hamkorlik va o'zaro tenglikka asoslangan muhitni yaratish. HTTini qo'llashda o'quvchilar quyidagi shakllarda ta'lim oladilar: 1) jamoada; 2) kichik guruhdagi; 3) juftlikda

HTTni qo'llashda o'quvchilardan quyidagilar talab etiladi: sherigi va guruhdoshlari bilan hamkorlikka erishish; faol ishslash, topshiriqqa nisbatan mas'uliyatli yondashish; sherigi yoki guruhdoshlariga ijobjiy munosabatda bo'lish; nafaqat o'z yutug'i, balki sherigi va guruhining muvaffaqiyati uchun javobgarlikni his qilish; juftlikda va guruhda ishslash – jiddiy va mas'uliyatli mehnat ekanligini his qilish.

HTTni qo'llash tartibi:- o'quvchilar (4-5 kishi) kichik guruhlarda ishlaydi; jamoa uchun yagona o'quv materiali taqdim etiladi;- har bir guruh alohida savolga javob topadi;- Ekspert guruhi shakllantiriladi;- bu guruh har guruh ishi bilan batafsil tanishadi; ekspert guruhi har bir o'quvchining faoliyatini individual baholash imkoniyatiga ega;- o'quvchilar to'plagan ballar umumlashtirilib, kichik guruhning faoliyatini baholanadi;- eng yuqori ball to'plagan jamoa g'olib sanaladi.

Xullas o'qituvchi bir kun o'z ustida ishlamasasi, maxsus tayyorgarlik ko'rmasa unda o'qituvchilik mahorati so'nib boshlaydi. Har bir o'tiladigan darsga, ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulotga, ma'naviy-ma'rifiy tadbiriga maxsus tayyorgarlik ko'rildi. Bajariladigan ishning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda metodlar tanlanadi, vositalar tayyorlanadi, qanday shaklda va tartibda o'tkazishga aniqliklar kiritiladi. Bir so'z bilan aytganda, pedagogik jarayonning samarali bo'lishiga zamin hozirlanadi.

## ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХИЙ ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАР

Юсупова Севара Низамитдиновна

АДУ таянч докторантни (PhD)

Ўзбекистон Республикаси Марказий Осиёда жойлашган бўлиб, унинг майдони 448,97 минг кв. км ни ташкил этади. Аҳолиси 2018 йил 1 январ холатига 32,65 млн кишини ташкил этади. Ўзбекистон аҳолиси сони бўйича МДҲ га кирган мамлакатлар орасида Россия ва Украинадан кейин 3-ўринда туради. Бу ерда Марказий Осиёдаги жами аҳолининг 1/3 дан кўпроғи яшайди. Пойтахти Тошкент шаҳри (1930-йилдан). Ўзбекистон Республикаси таркибида Коракалпогистон Республикаси (1936-йил) ва 12 та вилоят киради. Жамиятда